



FARG'ONA VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI

RISHTON TUMANI XALQ TA'LIMI MUASSASALARI
FAOLIYATINI METODIK TA'MINLASH VA TASHKIL
ETISH BO'LIMI TASARRUFIDAGI

7-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI

9-“A” sinf rahbari

VAHOBOV ADXAMJONNING

DARS ISHLAMASI

Sana: _____

Sinf: 9—“A”

Fan: Ma’naviyat soati.

Mavzu: Konstitutsiya – huquqlarimiz kafolati.

(8 dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan).

Dars maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O’quvchilarga mustaqil fikrlashni, konstitutsiyamizda belgilangan qonunlarga rioya etishligini, o`zlarining kasb tanlash huquqiga ega ekanligini uqtirish.

Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarda vatanparvarlikni singdirish, konstitutsiya moddalari bilan tanishtirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: O’quvchilarni mustaqil fikrlarini oshirish.

Dars usuli: Aralash.

Dars johozi: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning: “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”, “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “O’zbekiston buyuk kelajak sari”, Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ma’naviyat qalbim quyoshi, Ma’naviyat yulduzlari, Pedagogika, shiorlar, plakatlar, devoriy gazetalar, slaydlar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

Salomlashish,

Xonani va o'quvchilarni darsga tayyorliklarini kuzatish,

Navbatchi axboroti,

Siyosiy daqiqa.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi.

Doskada: “**Har bir shaxsning o'z tanlagan kasbi bo`ladi**” so'zi yozib qo'yiladi.

O'qituvchi so'zi:

Konstitutsiya lotincha (Constitusiya) degan so'zdan olingan bo'lib, u “tuzish”, “tuzuk”, “Tuzilish”, “yaratish”, “o'rnatish” degan ma'nolarni bildiradi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda Oliy Majlisning XXII sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiya 6 bo'lim 26 bob va 128 moddadan iborat.

1-bo'lim: Asosiy printsipler,

2-bo'lim: Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari,

3-bo'lim: Jamiyat va shaxs,

4-bo'lim: Ma'muriy hududiy va davlat tuzilishi, 5-bo'lim: Davlat hokimiyatining tashkil etilishi, 6-bo'lim: Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI: BELGILARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

Belgilari

Ta'sis etuvchi va
asos bo`lувчи

Oliy yuridik kuchga
egaligi

Huquqning asosiy manbai, amaldagi
qonunlar uchun asos ekanligi

Barqarorligi

O'zbekiston 1992-yilgi
Konstitutsiyasi

Rivojlanish bosqichlari

Turkiston ASSR, Buxoro va Xiva
respublikalarining 1918 – 1920
yillardagi konstitutsiyalari

O'zbekiston SSRning 1927-yilgi
Konstitutsiyasi

O'zbekiston SSRning 1937-yilgi

Konstitutsiyasi

O'zbekiston SSRning 1978-yilgi
Konstitutsiyasi

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy tuzumming asoslari

Davlatning vazifasi –
inson va fuqaroning
ajralmas huquqlari va
erkinliklarini tan olish,
ularga rioya etish va
ularni himoya qilish
Davlat suvereniteti
...

Ijtimoiy jihatdan yo`naltirilgan bozor xo`jaligi –
iqtisodiyot asosi
Inson va fuqaro huquq va erkinliklarining ustunligi
Siyosiy va mafkuraviy plyuralizm
Fuqarolarning teng huquqliligi
Jamoat birlashmalarining qonun oldida tengligi

DAVLAT SUVERENITETI

Davlat suvereniteti .

O`zbekiston Respublikasining suvereniteti uning butun hududida amal qiladi.

1.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari O`zbekiston Respublikasining butun hududida ustinlikka ega.

2.

3. O`zbekiston Respublikasi o`z hududining yaxlitligi va daxlsizligini ta'minlaydi

O`zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining sifatlari

Butun hududda amal qiladi

O`z ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilaydi

Butun hududda ustinlikka ega bo`lgan konstitutsiya va qonunlarni qabul qiladi

O`z hududining yaxlitligi va daxlsizligini ta'minlaydi

1. Konstitutsianing XI-bob 41-moddasi nimaga bag'ishlanadi?

(41-modda: Xar bir inson bilim olish huquqiga ega, bepul umumiyligi ta'limga oshirilishi mumkin bo`lgan huquqlardir).

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qachon va qaerda qabul qilingan?

(Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 -yil BMT tomonidan qabul qilingan).

3. Inson huquqi nima?

(Inson tug'ilishidan to'g'rining oxirigacha huquq va erkinliklarining berilishiga inson huquqlari tushiniladi. Inson huquqlari davlat tomonidan ruxsat etilgan, man etilgan yoki uning o`z hohishi bilan amalga oshirilishi mumkin bo`lgan huquqlardir).

4. O`zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha qanday vakillik organi ish yuritadi?

(Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Oliy Majlisning Ombudsman vakili ish olib boradi).

5. Saylov tizimi Konstitutsianing qaysi bobida berilgan?

(Saylov tizimi Konstitutsianing XXIII-bob, 117-moddasida berilgan.)

6. O`zbekistonda fuqarolarga necha yoshdan saylash huquqi beriladi?

(Saylash huquqi 18 yoshga to'lgan fuqarolarga beriladi).

7. O'zbekiston Respublikasida saylov tizimi qanday?
(umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylov tizimi o'tkaziladi).

8. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida Konstitutsianing nechanchi moddasida berilgan?

(Konstitutsianing 67-moddasida).

9. Fuqarolarning burchlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi bobida berilgan?

(Fuqarolarning birinchi Konstitutsiyasining XI – bobida berilgan).

V. Dars yakuni:

Guruhlarni va o'quvchilar ni rag'batlantirish;

Uyga vazifa: „Bahs-munozara“ mashqi.

O`quvchilar orasida huquqshunos bo`ladiganlar bormi?

Huquqshunoslik kasbi haqida ma'lumotga egamisiz?

Savollarga javob yozib kelish.

Konstitutsianing moddalarini yod olish.